

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabalari o'rtasida**  
**“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik” shiori ostida o‘tkaziladigan**  
**“Hayotimni o‘zgartirgan asar” ko‘rik tanlovi**  
**N I Z O M I**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Samarqand davlat universitetida tahsil oluvchi talabalar o'rtasida “Hayotimni o‘zgartirgan asar” ko‘rik tanlovini (keyingi o‘rinlarda Tanlov deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**II. Tanlovning maqsad va vazifalari**

2. Tanlov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash, talaba-yoshlarni ezgu maqsadlarga ilhomlantirish, adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish, ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish maqsadini ko‘zlaydi. Shu jumladan, talabalar-yoshlarni mustaqil fikrlashga, hayotga ijod ko‘zi bilan qarashga, shuningdek, adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, ularga o‘z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag‘batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

**III. Tanlovni tashkil etish**

3. Tanlovda Samarqand davlat universitetining barcha fakultet talabalari (filologiya yo‘nalishidan tashqari) va universitetimizga birlashtirilgan mahalla yoshlari ishtirok etishlari mumkin.

4. Tanlovni tashkil etish va uni o‘tkazish universitetning Ma‘naviyat bo‘limi tomonidan shakllantirilgan Tashkiliy ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.

**IV. Tanlovni o‘tkazish tartibi**

5. “Hayotimni o‘zgartirgan asar” tanlovi ikki bosqichda o‘tkaziladi.

6. Tanlovning 1-bosqichi fakultetlarda akademik guruhlar o‘rtasida, mahallalarda mahalla yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladi va birinchilikni qo‘lga kiritgan ishtirokchi 2-bosqichda (har bir fakultet va mahalladan 1 (bir) nafar ishtirokchi) qatnashadi.

7. 2-bosqichda ishtirok etish uchun g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchi haqida ma‘lumot fakultet dekanati va mahalla mas‘ullari tomonidan rasmiylashtirilgan bayonnoma asosida Ma‘naviyat bo‘limiga topshiriladi.

8. 2-bosqich 2022-yil 20-iyun sanasida o‘tkaziladi.

9. Tanlovga o‘z vaqtida yetib kelmagan ishtirokchi tashkiliy ishchi guruh tomonidan tanlovdan chetlashtiriladi.

**10. Tanlovning shartlari va baholash mezonlari:**

**1-shart** “Asar bayoni” deb nomlanib bunda ishtirokchi o‘zi sevib o‘qigan va hayotini o‘zgartirgan asari bo‘yicha qisqacha ma‘lumot beradi. Ajratilgan vaqt 5 daqiqa. Baholash tartibi quyidagicha:

- ✓ asarni bayon qilishda asar muallifi, asarning yetakchi g'oyasi va mazmunining to'liq qamrab olinganligi – 10 ball;
- ✓ kitobxon tomonidan asarga munosabatning (tanqidiy yoki ijobiy) qiziqarli va jozibador tarzda bildirilganligi, matnda fikrni ifodalash uslubi, ishtirokchining nutq madaniyati, badiiy obrazlarning real hayot bilan bog'liq ibratli tomonlarini ochib berganligi – 10 ball;
- ✓ adabiyotda berilgan umuminsoniy g'oyalar va milliy koloritga munosabat bildirilganligi – 10 ball;
- ✓ asardagi aynan qaysi voqealar, nuqtai nazar, fikr, g'oya yoki syujet kitobxon hayotida o'zgarish yasagani, uni amaliy faoliyatida qo'llay olgani va aynan shu sababli qanday natijalarga erishgani (asosli, ishonchli, hayotiy yoritilishi e'tiborga olinadi) – 20 ball;

Bunda bayon qilingan asar Hakamlar hay'ati tomonidan jamoaviy ko'rib chiqilib, birgalikda xulosa qilinib yagona baho (ball) qo'yiladi. Jami 50 ball.

Yakuniy baho shart bo'yicha ishtirokchilarning eng yuqori to'plagan ballarini qo'shish orqali aniqlanadi.

## **V. G'oliblarni taqdirlash**

**11.** Tanlovda g'olib bo'lgan talabalar quyidagi tartibda:

I - o'rin diplom va televizor;

II - o'rin diplom va planshet;

III - o'rin diplom va telefon mukofotlari bilan taqdirlanadi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

**12.** Tanlovning Nizom talablari asosida ijrosini nazorat qilish Tashkiliy ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.